

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat o’qituvchini, balki ta’lim jarayonining umumiy sifatini ham oshiradi. Chunki:

- o’quvchilar bilimni tayyor shaklda emas, balki faol izlanish orqali egallaydi;
- ularning motivatsiyasi va mustaqil ta’lim olishga bo’lgan qiziqishi kuchayadi;
- informatika faniga bo’lgan e’tibor ortadi va ta’lim jarayoni samaradorligi ta’minlanadi[7].

Informatika o’qituvchisini tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo’llash nafaqat kasbiy bilimlarni, balki amaliy ko’nikmalarni ham shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv o’qituvchini zamonaviy ta’lim talablariga moslashtirish, o’quvchilarda raqamli savodxonlikni rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi[8].

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy afzalliklari pedagogik, metodik, amaliy, kasbiy va ta’lim sifatiga ta’sir jihatlarida yaqqol namoyon bo’ladi. Uning asosida tayyorlangan informatika o’qituvchisi raqobatbardosh, ijodkor, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana oladigan va o’quvchilarda motivatsiyani kuchaytiradigan mutaxassis bo’lib shakllanadi.

Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvni o’qituvchi tayyorlash jarayonida keng joriy etish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, raqamli jamiyat ehtiyojlariga mos keladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi[9].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.J.Boltayev va boshqalar. Informatika -T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. - 88 b.
2. Бахронов, Б. И. У., & Мансуров, Т. З. У. (2021). Вычисление существенного спектра обобщенной модели Фридрихса в системе Maple. *Наука, техника и образование*, (2-2 (77)), 35-38.
3. M. R. Fayziyeva, D.M. Sayfurov, R.K. Atamuratov va boshqalar. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik – Toshkent. - 2021. – 19-23 b.
4. Мансуров, Т. З. У. (2022). Самостоятельная работа на уроках математики это средство творческого развития учащихся. *Science and Education*, 3(6), 1116-1121.
5. Мансуров, Т. З. У. (2022). Психолого-дидактические условия развития речемышлительной деятельности учащихся в процессе обучения математике. *Science and Education*, 3(6), 1109-1115.
6. Мансуров, Т. З. У. (2022). Целесообразные уровни самостоятельности. *Science and Education*, 3(6), 1129-1135.
7. Mansurov, T. (2024). Improving science teaching efficiency using the h5p plug. *Solution of social problems in management and economy*, 3(5), 231-235.
8. Mansurov, T. (2024). Ta’limning formal, noformal va informal turlarining bilim olish jarayonidagi o’ziga xos afzalliklari. "Педагогическая акмеология" международный научно-методический журнал, 9(17).
9. T. Z. Mansurov (2024). Informal ta’limning o’qitish samaradorligini oshirishdagi roli. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(54), 232-237.

TA’LIMNI ISLOH QILISH VA INNOVATSION PEDAGOGIK LOYIHALASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YONDASHUVLARI VA AMALIY NATIJALARI.

Alibayev Sobir Xolbayevich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Bugungi kunda ta’limni isloh qilish va axborotli o‘zaro ta’sir sharoitida ta’lim jarayonlarini loyihalash pedagogika fanining eng dolzarb masalalaridan biridir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi va uzluksiz ta’lim tizimining rivojlanishi innovatsion faoliyatni samarali loyihalashni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogik loyihalash nafaqat ta’lim jarayonining sifatini oshirish, balki yangi avlodni kompetent, ijodiy, tashabbuskor va axloqiy fuqarolar sifatida shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Pedagogik loyihalash jarayoni amaliy va nazariy jihatlarni birlashtirgan murakkab faoliyat bo‘lib, u kutilayotgan natijani oldindan tasavvur qilish, resurslarni tizimli ravishda rejalashtirish va loyiha g‘oyasini real sharoitlarda amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu jarayon ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagoglar uchun yuqori darajadagi tashkiliy va ilmiy tayyorgarlikni talab qiladi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni boshqaruv komponenti sifatida integratsiyalashni nazarda tutadi.

Pedagogik loyihalash ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: didaktik va ijtimoiy-pedagogik. Didaktik yo‘nalish ta’lim jarayoni, uning ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va didaktik vositalarni samarali loyihalashga qaratilgan bo‘lsa, ijtimoiy-pedagogik yo‘nalish shaxsning ijtimoiylashuvi va jamiyatga moslashuvini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unlashuvi pedagogik jarayonning ilmiy asoslangan va amaliy natijaviy bo‘lishini kafolatlaydi.

Ta’limni isloh qilish va axborotli o‘zaro ta’sir sharoitida ta’lim jarayonlarini loyihalash bugungi kunda jamiyatning dolzarb ijtimoiy va pedagogik vazifalaridan biridir. Har yili uzluksiz ta’lim tizimidagi innovatsion faoliyatni loyihalash va rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda, bu esa pedagogik loyihalashning amaliy va nazariy ahamiyatini oshiradi. Innovatsion faoliyatni loyihalash jarayoni ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagoglar uchun murakkab vazifa bo‘lib, u yangi darajadagi texnologiyalarni tizimli, ilmiy asoslangan boshqaruv komponentlari sifatida qabul qilishni talab qiladi [1].

“Loyihalash” tushunchasi tadqiqotlarda kelajakda sodir bo‘lishi kutilayotgan hodisaning modeli yoki tasviri, ya’ni ob’ektning loyihasi, namunasi yoki prototipini yaratishga qaratilgan jarayon sifatida talqin qilinadi. Loyihalashtirish natijasi rejalashtirilgan narsaning haqiqiy mahsulotga aylanishidan oldin amalga oshiriladi, bu esa pedagogik faoliyatni ilmiy asoslash imkonini beradi [1].

Pedagogik loyihalash ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: didaktik va ijtimoiy-pedagogik.

Didaktik yo‘nalish pedagogik jarayonni, uning ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shakllarini, samaradorlik shartlarini va qaror qabul qilish strategiyalarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ta’lim jarayonidagi texnologiyalar, o‘quvchi va pedagoglarning o‘zaro ta’siri hamda didaktik vositalarni loyihalashga yo‘naltiriladi [1; 2].

Ijtimoiy-pedagogik yo‘nalish esa pedagogik loyihalash ob’ekti sifatida ijtimoiy-madaniy muhitni tartibga solish, uni informatizatsiya qilish va pedagogiklashtirish orqali ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqadi. Ushbu yo‘nalish shaxsning ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashuvi va kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [3; 4].

Pedagogik loyihalash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

Pedagogik loyihalash jarayoni o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va ta’lim sifatini oshirish maqsadida uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: diagnostik, amaliy va tahliliy. Har bir bosqich o‘ziga xos vazifalar va metodlarni talab qiladi.

1. Diagnostik bosqich loyiha g’oyasini aniqlash va pedagogik faoliyatning boshlang’ich darajasini baholashga qaratilgan. Ushbu bosqichda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi: Ta’lim muassasasining joriy holatini tahlil qilish; o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malaka darajasini aniqlash; Pedagoglarning professional tayyorgarligi va o’quv jarayonida qo’llaniladigan metodik vositalarini baholash; Loyiha g’oyasini shakllantirish, uning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash; Potensial resurslar, imkoniyatlar va cheklovlarni aniqlash orqali loyihaning samarali amalga oshirilishi uchun tayyorgarlik ko’rish. Diagnostik bosqich pedagogik loyihalashning nazariy asoslarini belgilaydi va keyingi bosqichlarda amalga oshiriladigan amaliy faoliyat uchun zamin yaratadi.

2. Amaliy bosqich – pedagogik loyihani amalga oshirishga qaratilgan asosiy bosqich bo’lib, unda loyiha maqsadlarini aniq belgilash, resurslarni tashkil etish va loyiha vazifalarini bajarish rejasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Ushbu bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi: Loyihaning aniq maqsadlari va vazifalari belgilanadi, bu esa jarayonni tizimli va samarali qilishga xizmat qiladi; Zarur resurslar – moddiy, metodik va inson resurslari aniqlanadi va ta’lim jarayoniga integratsiyalanadi; Loyihaning amalga oshirish dasturi ishlab chiqiladi, bunda pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va ta’lim vositalari mos ravishda qo’llaniladi; O’quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, motivatsiyasini oshirish va amaliy topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlash ishlari olib boriladi. Amaliy bosqich pedagogik g’oya real sharoitda sinovdan o’tishi va uning natijasi amaliy faoliyatga aylanishini ta’minlaydi.

3. Tahliliy bosqich loyihaning samaradorligini baholash, o’z-o’zini tahlil qilish va zarur o’zgartirishlarni kiritishga qaratilgan. Bu bosqich quyidagi faoliyatlarni o’z ichiga oladi: loyiha natijalari va o’quv jarayonining samaradorligi baholanadi; o’quvchilarning kompetensiyalari, kreativlik va ijtimoiy ko’nikmalari tahlil qilinadi; jarayon davomida yuzaga kelgan muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo’yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi; loyiha natijalariga asoslanib, pedagogik metodlar va ta’lim dasturlari takomillashtiriladi. Tahliliy bosqich pedagogik loyihalashning doimiy takomillashtirish jarayonini ta’minlaydi, shuningdek, kelajakdagi loyihalar uchun muhim tajriba va bilim manbai sifatida xizmat qiladi. Mazkur yondashuv pedagogik faoliyatni nafaqat ilmiy asoslash, balki amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’limning modernizatsiyasi va yangi avlodni kompetent, ijodiy, tashabbuskor va axloqiy fuqarolar sifatida tarbiyalash pedagogik loyihalash orqali yanada tizimli va natijaviy shaklda amalga oshiriladi [1; 2; 4]. Shu bilan birga, pedagogik loyihalash shaxsning o’zini rivojlantirish va resurslarni samarali ishlatish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa ta’lim jarayonining sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Pedagogik loyihalash ta’limni isloh qilish va axborotli o’zaro ta’sir sharoitida ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etishning muhim vositasidir. Ushbu jarayon didaktik va ijtimoiy-pedagogik yo’nalishlar orqali o’quv jarayonini tizimli rejalashtirish, yangi avlodni kompetent, ijodiy va tashabbuskor shakllantirish imkonini beradi. Diagnostik, amaliy va tahliliy bosqichlar pedagogik loyihalashning samaradorligini ta’minlab, pedagogik faoliyatni ilmiy asoslash va amaliy natijaviylikka erishishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik loyihalash shaxsning o’zini rivojlantirish va ta’lim resurslarini samarali ishlatish imkoniyatlarini kengaytiradi, ta’lim jarayonining sifatini oshiradi.

Adabiyotlar

1. Анисимова, В. В., Сериков, В. В. Проектирование педагогической деятельности: объективные и субъективные основания. – Вестник Оренбургского государственного университета, 2004, № 2(27).

2. Афанасьева, Т. П., Новикова, Г. П., Тюнников, Ю. С. Преемственность образования в общеобразовательном комплексе: инновационные модели и механизмы. – Ярославль-Москва, 2020.
3. Домрачева, С. А. Социально-педагогическое проектирование. – Йошкар-Ола, 2012.
4. Фахрутдинов, Р. А., Фахрутдинов, Р. Р. Социально-педагогическое проектирование формирования личности. – Известия КГАСУ, 2012, № 2(20).

SHE’RIYATDA SEMANTIK KENGAYISH VA POETIK YUKLAMA

Ibragimov Xayrulla Hamdamovich

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, f.f.f.d (PhD)

Tel: +99894 575-44-84 xayrullaibragimov773@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada she’riy nutqda semantik kengayish va poetik yuklama hodisalari lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Semantik kengayishning metaforik, metonimik, assotsiativ, pragmatik va kognitiv turlari ilmiy jihatdan izohlanib, ularning she’riy matndagi funksional xususiyatlari misollar asosida ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются явления семантического расширения и поэтической нагрузки в поэтической речи с лингвопоэтической точки зрения. Научно объясняются метафорический, метонимический, ассоциативный, прагматический и когнитивный типы семантического расширения, а на примерах раскрываются их функциональные свойства в поэтическом тексте.

Kalit so‘zlar: Semantik kengayish, poetik yuklama, badiiy matn, metafora, metonimiya, assotsiativ kengayish, pragmatik kengayish, kognitiv kengayish, lingvopoetika, konnotativ ma’no, obrazlilik, estetik ta’sir, she’riy nutq

Ключевые слова: Семантическое расширение, поэтическая нагрузка, литературный текст, метафора, метонимия, ассоциативное расширение, прагматическое расширение, когнитивное расширение, лингвопоэтика, коннотативное значение, образность, эстетический эффект, поэтическая речь

Tilning badiiy imkoniyatlari, uning ichki dinamikasi va ma’no qatlamlari o‘rganilishi zamonaviy lingvistika va adabiyotshunoslikda asosiy ilmiy masalalardan biridir. Badiiy matn – til birliklarining eng yuqori darajadagi semantik faollik maydoni bo‘lib, u so‘zning denotativ ma’nosidan tashqariga chiqib, yangi konnotativ, ramziy va estetik qatlamlarni hosil qiladi. Semantik kengayish va poetik yuklama tushunchalari aynan shu jarayonlarni izohlashda markaziy o‘rin tutadi.

Semantik kengayish (semantic extension) – so‘z yoki iboraning denotativ ma’nosidan chiqib, yangi ma’no qatlamlarini hosil qilish jarayoni bo‘lib, tilning dinamik jarayonlaridan biridir. U badiiy matnda eng ko‘p namoyon bo‘ladi, chunki poetik matnda so‘zning estetik, obrazli va hissiy funksiyalari kuchayadi.

F. de Saussur⁷² so‘z ma’nosini tizim ichidagi boshqa birliklar bilan bog‘liq farqlar orqali tushuntiradi. Shunday qilib, semantik kengayish til tizimi ichida dinamik va kontekstga bog‘liq jarayon sifatida ko‘riladi. V.V. Vinogradov⁷³ fikricha, semantik kengayish badiiy matnda so‘zning obrazli, emotsional va kognitiv qatlamlarini boyitish mexanizmidir. Shu nuqtai nazardan, semantik kengayish poetik matnning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. She’riyatda bu jarayon so‘zning hissiy va obrazli kuchini oshirishga xizmat qiladi.

⁷² Saussure F. de. Cours de linguistique générale. — Paris: Payot, 1916. — P. 115-118

⁷³ V. V. Vinogradov – О языке художественной литературы 1959г, 45-52; 87-92-betlar